



BO'LG'USI MATEMATIKA O'QITUVCHILARIDA O'QUVCHILARGA ASOSIY DIDAKTIK BIRLIKLARNI O'RGATISH TEXNOLOGIYASI BO'YICHA KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Jo'rayeva Muhayyo Nematillayevna

Qarshi davlat universiteti, katta o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6416998>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-mart 2022

Ma'qullandi: 20-mart 2022

Chop etildi: 25-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Kompetentlik, matematika, uslub, tahlil, metodika, ta'lim.

ANNOTATSIYA

Bo'lajak matematika o'qituvchisi kasbiy kompetentligining texnologik asosi uzluksizlik xarakteriga ega bo'lishi, ya'ni ta'lim oluvchilarning pedagogik faoliyatga uzluksiz erishish jarayonida barcha matematik kurslar ishtirok etishi lozim.

Mamlakatimizning ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar ilg'or xorijiy ta'lim tajribasini o'rganish, tahlil etish hamda ta'lim muassasalari sharoitlariga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik va didaktik xususiyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Hozirgi jamiyatni taraqqiy ettirish bosqichida «bilimli» ta'lim yondoshuvidan kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tish hamda bitiruvchilarda egallanishi ko'zda tutilayotgan kasbga doir shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

«Kompetentli» yondoshuvga asoslangan ta'lim tizimida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining roli ham o'zgaradi. Chunki, «bilimli» yondoshuvda ta'lim beruvchi faol va asosiy ishtirokchi bo'lsa, ta'lim oluvchi esa, sust qabul qiluvchi

sifatida ishtirok etadi¹. «Kompetentli» yondoshuvda ta'lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanadi, chunki uning ta'lim olish faoliyati ko'proq mustaqil- individual topshiriqlarni bajarish va uning natijasini himoya qilishga, kreativ amaliy mashg'ulotlarda doimiy ravishda savollarga javob berish va individual tadqiqot ishlarini olib borishga qaratilgan bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim (competence-based education - CBE) amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetensiya» atamasining umumiy ma'nosida shakllanadi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida

¹ Alimov N.A., Yusupov R.M. Axborot-kommunikatsiya ta'lim muhiti ta'lim sifatini oshirish omili sifatida // «O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsiya texnologiyalarining ahamiyati» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent. - 2012. 331-332 betlar.



bo'lib o'tgan simpoziumda (1996 yil) «kompetensiya» tushunchasi «o'quv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilganligi ta'kidlandi. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklarasiyasida (1999 yil) ta'lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuvni belgilashdi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida:

«Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, boy va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslargina pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega» - deb ta'kidlangan. Ushbu hujjat talablarini bajarish uchun bo'lajak o'qituvchilarda, shu jumladan bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish muhim hisoblanadi.

A.S. Belkin va V.V. Nesterovlar kompetensiyani ta'lim jarayonida samarali faoliyat uchun zaruriy shart-sharoit yaratuvchi kasbiy vakolat, funksiyalar, kompetentlikni esa, kompetensiyani samarali amalga oshirishni ta'minlovchi kasbiy va shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida ta'riflagan.

V.N. Vvedenskiy fikricha kompetentlik - bu qandaydir shaxsiy tavsif, kompetensiya esa, aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmuasi.

M.A. Xolodnaya kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan: kompetentlik - bu mos faoliyatda samarali qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi predmetli- o'ziga xos bilimlarni tashkil etishning maxsus tipi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzluksiz ta'limda fanning ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvi, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondoshuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari hamda zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga asos solmoqda.

Ta'limda kompetentli yondoshuv - bu Vatanimiz pedagogikasi uchun nisbatan yangi hodisa. Uning rivoji shu bilan bog'liqlik, mustaqil Respublikamizda ta'limni modernizatsiyalashning zamonaviy bosqichida eng avvalo uning maqsadi tubdan o'zgaradi.

Davlat ta'lim standartlarida bo'lajak o'qituvchining profilli (mutaxassislik) kompetensiyasi ham aniqlangan bo'lib, u o'qituvchining kasbiy kompetentligining muhim tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u juda kam o'rganilgan muammolardan biridir. Ana shunday masalalardan biri bo'lajak matematika o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga kompetentli yondoshuvni aniqlash va Davlat ta'lim standartlarining asosiy qoidalariga mos holda uning tuzilmaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Bo'lajak matematika o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash uchun ushbu tushunchani o'rganishga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz.

bo'lajak matematika o'qituvchisining kasbiy kompetentligida



kompetentlikning uchta turini ajratish mumkin:

- a) mazmunli (maxsus matematik bilimlarning mavjudligi);
- b) texnologik (matematikani o'qitish usullariga egalik);
- c) shaxsiy (shaxsning ayrim xususiyatlariga ega bo'lish).

Bo'lajak matematika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bir qator pedagog olimlarning tadqiqot predmeti bo'lib kelgan, lekin bugungi kunda bu tayyorgarlik mazmunida kasbiy kompetentlikning qayd etilgan uchala turini ham inobatga olish zarurligi asoslandi.

Bo'lajak matematika o'qituvchisi kasbiy kompetentligining mazmunli asosi pedagogika oliy ta'lim muassasalari «Matematika» va «Matematika o'qitish metodikasi» ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarida o'qitish ko'zda tutilgan umumkasbiy fanlar (matematik analiz, algebra va sonlar nazariyasi, geometriya, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, matematika o'qitish nazariyasi va metodikasi hamda boshqa fanlar) ni mos ravishda mos maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari matematika kurslari bilan aloqadorlikda o'qitishni ko'zda tutadi. Bu aloqadorlikning amalga oshirilishi esa, o'z navbatida, kursning maqsadga yo'naltirilganligini, uni o'rganish istiqbollarinig ta'lim oluvchilar tomonidan anglanishini ta'minlaydi va kursning ongli ravishda o'zlashtirilishiga imkon beradi².

Bo'lajak matematika o'qituvchisi

² Boymurodova G., Tosheva N. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonida o'qituvchi kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish - davr talabi // Uzluksiz ta'lim. - 2012. - №2. 71-74 betlar.

kasbiy kompetentligining mazmunli asosi avvaldan pedagog olimlar e'tiborini o'ziga tortgan. Hozirgi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida matematik ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga ega va u ilgari ta'limdan tubdan farq qilishi lozim. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan muhim bo'lgan matematik fanlarni o'qitishga asosiy o'rin ajratilishi zarur. Bu borada I.D. Pexliskiy o'qitish tamoyili - asosiysini ajratishdan iborat bo'lishi kerak, - degan fikrni bildirgan

NATIJARLAR

Fundamental matematik tayyorgarlik o'qituvchi tayyorlashning maqsadi emas, balki vositasi va shuning uchun ham u egallanayotgan kasbning ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. A.G. Mordkovich bu holatni fundamentallik tamoyili - deb nomlagan. Masalan, bo'lajak matematika o'qituvchilari uchun ixtisoslik fanlari blokidagi differensial tenglamalar umumkasbiy fanlar blokidagi matematik analiz kursining o'rganilgan bo'limlarini mustahkamlash maqsadida o'rganiladi. Shuning uchun differensial tenglamalar kursi o'quv dasturida ta'lim oluvchilar tomonidan quyi kurslarda o'rganilgan matematik analiz kursi bo'limlarini keng qamrab olgan masalalarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Bo'lajak matematika o'qituvchisi kasbiy kompetentligining mazmunli asosi pedagogika oliy ta'lim muassasalarining matematika kurslari va mos maktab matematika kursining aniq bog'lanish g'oyasini ilgari suradi. Bu bog'lanishning amalga oshirilishi mazkur kursning maqsadga yo'naltirilganligini, uning



o'rganilish istiqbollarini va ta'lim oluvchilar tomonidan tushunilishini ta'minlaydi, demak kursning ongli ravishda o'zlashtirilishiga imkon beradi.

Bo'lajak matematika o'qituvchilarini tayyorlashning zamonaviy holati tahlili shuni ko'rsatdiki, bu jarayonda

kompetentli yondoshuv elementlaridan yetarlicha faol foydalanilmoqda va bo'lajak matematika o'qituvchisi tayyorgarligining kasbiy pedagogik yo'nalganligi konsepsiyasi doirasida rivojlantirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov N.A., Yusupov R.M., Shamsiyev A.Sh., Temurov S.Y. MathCAD da differensial va integral hisobni bajarish metodikasi. - T.: Fan va texnologiya. - 2010. - 96 b.
2. Alimov N.A., Yusupov R.M. Axborot-kommunikatsiya ta'lim muhiti ta'lim sifatini oshirish omili sifatida // «O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsiya texnologiyalarining ahamiyati» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent. - 2012. 331-332 betlar.
3. Бочкова Р.В. Компьютерные технологии в профессиональной деятельности работника образования: учеб.пособие. - Саранск. - 2008. - 194 с.
4. Boymurodova G., Tosheva N. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonida o'qituvchi kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish - davr talabi // Uzluksiz ta'lim. - 2012. - №2. 71-74 betlar.
5. Маматов М.Ш., Темуров С.Й., Махмудова Д.М., Куницын А.З. О применении информационно - коммуникационных технологий при развитии самостоятельного творческого мышления молодежи // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. - М. - 2012. - № 03 (38). - С. 234-242.
6. www.ziyonet.uz